

UDK 364.5

OHANGARON DAVLAR O'RMON XO'JALIGI HUDUDIDA GREK YONG'OG'I  
(*JUGLANS REGIA*) PLANTASIYASINI PARVARISHLASH AGROTEXNOLOGIYASI

Yuldashov Yoqubjon Xatamovich

*O'rmonchilik va landshaft dizayn kafedrası professori*

Ro'ziyev Qahhorxo'ja Olimjon o'g'li

*TDAU magistranti*

Abduraxmonov Oybek Bahodir o'g'li

*bakalavr 4-60 guruh talabasi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada grek yong'og'i plantasiyalarini 1-yildan 5-yilgacha parvarishlash agrotexnologiyasi, sug'orish normalari keltirilgan. Ushbu ishlar qanday texnikalar yordamida olib borilishi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** grek yong'og'i, plantasiya, parvarishlash, agrotexnologiya

**Mavzuning dolzarbligi.** Dunyo bo'yicha o'rmonlashtirish maqsadlarida ko'plab mahalliy va tropik o'simliklar assortimentlari ko'paytirilmoqda va ulardan keng foydalanilmoqda. Dunyo bo'yicha o'rmonchilik juda muhim ahamiyatga ega sohalardan biri hisoblanadi. 1930-50 yillarda o'rmon himoyalarni yaratish uchun ishlatiladigan agrotexnik tadbirlar alohida rol o'ynagan. Zavodlarning havoni va yerlarni zaharlashi, o'sha paytda tahlikali bo'lgan, yerlarni shudgorlash natijasida vujudga kelgan katta miqdordagi tuproq eroziyasini oldini olishga agrotexnologik tadbirlar katta yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining tog'li-tog'oldi mintaqalari sharoitida, ayniqsa, suv oqimini boshqaruvchi sifatida o'rmonlarning ahamiyati katta, ular tuproqni yuvilish va o'pirilishdan himoya qiladi, qo'paruvchi jala oqimining hosil bo'lishiga qarshi turadi. Sug'oriladigan yerlarda o'rmon daraxtlari q/x ekinlariga salbiy ta'sirlarni kamaytiradi, ularning hosildorligini oshirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da Respublika hududlarida o'rmonlar maydonini kengaytirish va o'rmon fondi yerlaridan samarali foydalanish bo'yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan. Bunda sug'oriladigan yerlarni erroziyadan va melioratsiya obyektlarini qum ko'chishidan saqlash maqsadida 2,5 ming gektar maydonda ixota daraxtzorlarini barpo etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; o'rmon fondining tog' va tog'oldi hududlarida 2,2 ming gektar maydonda yong'oq mevalilar, shundan, 1,5 ming gektar pista, 600 gektar bodom, 120 gektar maydonda yong'oq plantatsiyalarini barpo qilish kabilar maqsad qilib olindi[2].

**Tadqiqot uslubi.** Ilmiy manbalar va adabiyotlardan foydalanilgan holda daraxt turlarining holati tahlil etiladi. Bunda daraxt turlarini ekish sxemalari Yuldashov Y.X.,

Kulametov A.R. larning Lesniye kulturi o'quv qo'llanmasidan foydalangan holda tahlil etiladi.

Yerni tayyorlash, ko'chatlarni parvarishlash agrotexnologiyalari Yuldashov Y.X. O'rmon yetishtirish texnologiyasi darsligidan foydalangan holda ishlab chiqiladi. Olingan natijalarga statistik ishlov berish Dospexov B.A., uslubiga asosan bajarildi.

Tadqiqot natijasi. Ushbu tadqiqot davrida Ohongaron o'rmon xo'jaligi hududida barpo etilgan grek yong'og'I plantasiyalariga parvarishlash agrotexnologiyalari ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqot natijalarini 1-jadvalda ko'rishingiz mumkin.

*Jadval-1*

**Parvarishlash agrotexnologiyasi**

Tartib raqami	Tadbirlar nomi xarajat xisobi	Mashina va mexanizmlar markasi	Ish normasi	
			O'lchov birligi	Miqdori
1	2	3	4	5
1	Yo'l tarmoqlarini belgilash (32:1400)	K.M	m	1400
2	Qiyaliklarda yo'l tuzish 33,2:350	OG-42	m	350
3	Qatorlarni belgilash 1400-780	K.M	m	780
4	Polotno eni 4 m bo'lgan terassa tuzish	T 13 DT-75k	ga	1,7
<b>Ko'chat o'tqazish va birinchi yil parvarishlash</b>				
5	Terassa polotnosini 3 marotaba yumshatish (1:9,5)x3	DT-75 KRT-3	ga	9,5 1,04
6	Yuklash 50:245	T-16 P2-0,2	t	2,45
7	Tashib olib kelish va sotish	MT3-80 ROS-3	t	25,2
8	Terassa polotnosini xaydash 1:1,7	DT-75k PLN-4-35	ga	1,7
9	O'tqazishdan oldin kultivatsiyalash 8-12 sm 1:9,9	DT-75k KRT-3	ga	9,5
10	O'tqazish joyini belgilash bilan terassani kesish 1:2,0	K.M	ga	2,0
11	Ko'chatlarni vaqtincha ko'mib qo'yish 125:890	K.M	Sht	890
12	Ko'chatlarni o'tqazishga tayyorlash 125:290	K.M	dona	290
13	Chuqur qazish 80x80 sm 125:236	DT-75k HSY-100	dona	236

14	Ko'chatlarni o'tqazish 425:360	K.M	dona	236
15	Terassa polotnosini yumshatish 4 marotaba (1:7) 68	DT-75k JPT-3	ga	7,68
16	Gerbetsid qorishmani tayyorlash va tashish 2,4 D (10 kg/ga) 450 l/ga 450:5000	AVI-1,7	l	5000
17	Gerbetsid bilan purkash 1:15	MT3-80 OP-400-5	ga	15,0
18	Yadoximinxlor eritmani tayyorlash va tashish 25:5000	AVI-1,7	l	9000
19	Zararkunandalarga qarshi kurash 1:15	MT3-80 OP-400	ga	15,0
20	Yon shoxlarni kesish 125:320	K.M	dona	320
21	Daraxt atrofidagi tuproqlarni ag'darish 290:220	K.M	m <sup>2</sup>	220
<b>II yili to'ldirish va parvarishlash</b>				
22	Mineral o'g'itlarni tashish (ortish) 0,180:245	T-16 m Pg-0,2	t	245
23	Mineral o'g'it berish 1,0:36	MT3-80 RMS-6	ga	36,0
24	Terassa polotnosini kultivatsiyalash (10x12 sm chuqurlikda) 1:76,8	DT-75k KRT-3	ga	36,0
25	Ko'chatlarni vaqtida to'xtatib qo'yish	K.M	dona	890
26	Ko'chatlarni o'tqazishga tayyorlash 25-105	-	2	290
27	Xatolarga ko'chat o'tqazish chuqur qazish va ko'chatni olib kelish bilan birgalikda 25:105	-	dona	105
28	Mineral o'g'itlarni yuklash 160:245000	T-16m PG-0,2	kg	240000
29	O'g'itlarni tashib kelish va berish 1:0,36	MT3-80 RME-6	ga	360
30	Yadoximinatli eritmalarini tayyorlash va tashish 25:15,0	MT3-80 OP-400-5	ga	150
31	Yadoximinatlarni purkash 1:15,0	MTZ-80 OP-400-5	ga	150
32	Gerbetsidlarni tayyorlash va tashish (2,4 D) 180:5000	AVS-1,7 MTZ-80	l	5000
33	Gerbetsidlarni purkash 0,4:150	MTZ-80 OP-400-5	ga	15,0
34	Yon shoxlarni kesish 125:320	Q.M	dona	320
35	Daraxt atrofidagi tuproqlarni ag'darish 290:220	Q.M	m <sup>2</sup>	220
36	Terassa polotnosini yumshatish (3 marotaba) (1:7,68)x3	DT-751 KRT-3	ga	7,68
<b>Uchinchi beshinchi yili parvarishlar</b>				
37	Mineral o'g'itlarni yuklash 5-yil	T-16m	kg	245000

	160:245000	PG-0,2		
38	Mineral o'g'itlarni sochish 1,0:36	MTZ-80 RMS-6	ga	36,0
39	Terassalarni kultivatsiyalash (2x3) 1:7,68	DT-75k KRT-3	kg	7,68
40	Yadoximikatlarni tayyorlash va tashish (50:5000)x3	AVS-1,7	l	5000
41	Yadoximikatlarni purkash (1:15,0)x3	MTZ-80 OP-400-5	ga	15,0
42	Gerbetsidlarni tayyorlash va tashish (180:5500)x3	AVS-1,7	l	5000
43	Gerbetsidlarni purkash (1:15,0)x3	MTZ-80 OP-400-5	ga	15,0
44	Shox shabbalarini kesish 195-320	Q.M	dona	320
45	Daraxt atrofidagi tuproqlarni ag'darish (250:220)x3	Q.M	m <sup>2</sup>	220
46	Terassa polotnosini yumshatish (1:768)x3	DT-75k KRT-3	ga	76,8
47	Terassa polotnosini yumshatish (1:7,68)x2x4	DT-75k KRT-3	ga	7,68
48	Daraxt atrofidagi tuproqni ag'darish (250:220)4	Q.M	m <sup>2</sup>	220
49	Azotli o'g'itlarni tashish va sochish 1,0:36	MTZ-80 RMS-6	m <sup>2</sup>	36,0
50	Kaliyli va fosforli o'g'itlarni yuklashtirish va sochish sohadigan yil kuzda 1,9:36,0	MTZ-80 RMS-6	m <sup>2</sup>	36,0

**Xulosa.** Ushbu parvarishlash agrotexnologiyasi Ohongaron o'rmon xo'jaligi maydonida barpo etilgan grek yong'og'i plantasiyalarida olib borilgan bo'lib, yaxshi natija berib kelmoqda. Ushbu texnologiyani ishlab chiqarishga tavsiya etsa bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'rmon to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2018 yil 16 aprel, 475-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni
3. Yuldashov Y.X. O'rmon yetishtirish texnologiyasi. Darslik. Darslik. Kollejlar uchun. «Hayot nashri 2020», Andijon-2021. -148 bet.